

ERTAK JANRI VA UNING TARKIBIDAGI “EZGULIK/YOVUZLIK” OPPOZITSIYASI XUSUSIDA

Yusupova Omina Muxammadzoi qizi

FarDU tadqiqotchisi

yusupovaomina77@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15738173>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ertak janrining o‘ziga xos xususiyatlari, undagi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi qarama-qarshilik tushunchasi atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada ushbu oppozitsiyaning ertak syujetini harakatga keltiruvchi asosiy kuch ekanligi, shuningdek, uning g‘oyaviy mazmunni shakllantirishdagi hal qiluvchi roli yoritiladi. Qolaversa, ezgulik qahramonlar timsolida va ularning adolatli harakatlarida, yovuzlik esa personajlarning salbiy xatti-harakatlarida qanday namoyon bo‘lishi ertaklardan olingan misollar bilan ko‘rsatiladi. Tadqiqot ertaklarning nafaqat ko‘ngilochar, balki tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatini ham ta’kidlab, yaxshilikning yovuzlik ustidan doimiy g‘alabasi orqali jamiyatda insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: ertak janri, ezgulik, yovuzlik, oppozitsiya, qarama-qarshilik, syujet, g‘oyaviy mazmun, tarbiyaviy ahamiyat, axloqiy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi.

KIRISH

Ertaklar alohida mustaqil janr sifatida paydo bo‘lishi olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlar xayoliy shaklda aks etgan davrlarga borib taqaladi. Chunki o‘sha zamonlarda real voqealar, turli qabilalar hayoti bilan bog‘liq afsonalar, an’anaviy urf-odatlar o‘zining avvalgi kuchini va kundalik ahamiyatini yo‘qotib, insonlar ongida g‘ayritabiiy hamda sirli hodisa bo‘lib ko‘rina boshlagan. Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, keng tarqalgan va hajman salmoqli janrlaridan biri bo‘lgan ertak, katta-yu kichiklar uchun birdek qiziqarlidir. Uning ildizlari ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari va marosimlariga borib taqaladi. Ularda odatda xalqning kundalik turmushi, insoniy fazilatlariga oid orzu-umidlari xayoliy hamda hayotiy to‘qimalar orqali tasvirlanadi. “Hayot haqiqati bilan bo‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi” [1].

Aytish joizki, xalq og‘zaki ijodining eng muhim janri hisoblangan ertakning asosiy xususiyatlaridan biri – ezgulik va yovuzlikning doimiy qarama-qarshiligi ya’ni oppozitsiyasi. Bu oppozitsiya ertakning nafaqat syujetini harakatga keltiruvchi asosiy kuch, balki uning g‘oyaviy mazmunini shakllantiruvchi markaziy element hisoblanadi. *Ezgulik* ertaklarda ko‘pincha qahramonlar timsolida nomoyon bo‘ladi. Masalan, ularning mehnatkash, halol, adolatli, jasur, sadoqatli va g‘amxo‘r kabi ezgu xususiyatlarga ega bo‘lishi yuqoridagi fikrimizning isboti bo‘la oladi. “Ayozi” nomli o‘zbek ertagining bosh qahramoni Ayozi ismli zukko, oqko‘ngil yigit bo‘lib, donoligi tufayli podshoh uni o‘ziga vazir qilib oladi. Ertakdan olingan quyidagi parchada ham qahramon yigitning don ova odil ekanligini ko‘rish mumkin.

“Shu bilan Ayozi podsho bo‘lib, o‘zining donoligidan xalqni odillik bilan so‘rab, mamlakatda adolat o‘rnatgan ekan.” [4]

Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, o‘zbek xalq ertaklarida dehqon yigit, mehribon qiz, donishmand chol, usta, tabib, keja farzand, mehribon vazir kabi ijobiy personajlar juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Bu kabi qahramonlar ertaklarda yaxshilik qilish, adolatni tiklash,

yordamga muhtojlarga ko'maklashish, qiyinchiliklarga sabr bilan bardosh berish kabi ijobiy harakatlarni amalga oshiradi.

Ertaklardagi *yovuzlik* esa zolim podshoh, hasadgo'y opa, o'gay ona, yolg'onchi do'st, dev, shum kampir, sehrgar, hasadgo'y qo'shni kabi salbiy obrazlar orqali nomoyon bo'ladi. Bu kabi salbiy obrazlar zulm qilish, aldash, hasad qilish, o'g'rilik, qotillik, o'zgalar baxtiga ko'z olaytirish, qahramonlarga to'siq bo'lish kabi harakatlarni amalga oshiradi.

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim zamonda bir podsho bor ekan. U, shu qadar zolim va johil ekanki, ta'biga kelgan har qanday noma'qul ishni qilaverar ekan" ("Zolim podsho" ertagidan)

Odatda bunday kimsalar ertaklarda jazoga tortilish, baxtsizlik, tanazzul, mag'lubiyat kabi natijalarga erishib, qilgan yomonliklari uchun jazolanadi.

"Shunday qilib, To'g'riboy to'g'riligidan maqsadiga yetibdi, Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi." ("Egri va To'g'ri" ertagidan)

Ta'kidlash joizki, aksariyat o'zbek ertaklari baxt-saodat, farovonlik, adolatning tantanasi, orzu-umidlarning ro'yobga chiqishi bilan yakun topadi. Ertaklarning asosiy maqsadi ham ezgulikning yovuzlik ustidan g'olib bo'lishini ko'rsatish, bu orqali tinglovchi yoki o'quvchida yaxshilikka ishonch, adolatga intilish va yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashdir. Shu sababli, ertaklar odamlarda nafaqat ko'ngilochar, balki axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keladi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ezgulik va yovuzlik oppozitsiyasi nafaqat ertak syujetining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, balki uning g'oyaviy va tarbiyaviy mazmunini shakllantiruvchi omildir. Ertaklarda ezgulik ijobiy qahramonlar va ularning adolatli harakatlari orqali, yovuzlik esa salbiy obrazlar hamda ularning ziyonkor niyatlari orqali namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ertaklar nafaqat bolalar, balki barcha yoshdagi kishilar uchun qiziqarli badiiy asar bo'lish bilan birga, yaxshilikning yomonlik ustidan doimiy g'alabasini ko'rsatuvchi muhim axloqiy va tarbiyaviy vositadir. Ular orqali avloddan-avlodga insoniy fazilatlar, adolatga intilish, ezgu qadriyatlar meros bo'lib o'tadi hamda ertaklar shaxs ma'naviyatining rivojiga katta hissa qo'shadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K. O'zbek xalq ertaklari \ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.
2. Моспанова Наталья Юрьевна. Концептуальная оппозиция «добро/зло» в фольклорной языковой картине мира (на материале русских народных сказок). Дисс. ... канд. филол. наук. 2005.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 204 b.
4. O'zbek xalq ertaklari I jild. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijod uyi, – Toshkent, 2007. – 220 b.
5. O'zbek xalq ertaklari. III jild. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijod uyi, 2014. – 384 b.
6. Dildora, G., & Omina, Y. (2023). Jahon tilshunosligida ertak diskursining o'rganilishi. *Involta Scientific Journal*, 2(5), 118-122 b.

7. Yusupova O. Ingliz va o'zbek maishiy er-taklaridagi asosiy tushun-chalarni ifodalovchi leksema-larning semantik tahlili. FarDU. ILMIY XABARLARI. Ilmiy jurnal – №3, 2024. <http://journal.fdu.uz>. ISSN 2181-1571. – 568-572 b.
8. Yusupova, O. (2023). JAHON VA O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ERTAK DISKURSINING TURLICHA TASNIFLANISHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8). 270-276.